


Surxondaryoda afv etilganlar ijtimoiy hayotga yo'naltirilmoqda



Viloyat hokimi To'ra Bobolov afv etilganlarni qabul qilib, ularga xalqimizga xos bag'rikenglik fazilatini namoyon etgan Prezidentimizning ishonchini oqlab, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish, jamiyatda o'z o'rnini topishi, yuz berayotgan o'zgarish va yangilanishlarning faol ishtirokchisi bo'lishi lozimligini ta'kidladi.

Mutasaddilarga afv etilganlarni ijtimoiy moslashtirish, moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlash, salomatliklarini tiklash, ishga joylashtirish va shu kabi boshqa hayotiy masalalarda amaliy yordam berish yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berildi.